



KORXONALARDA MAJBURIYATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Adizov Ikromjon Jumaboyevich

«Ipoteka bank» ATIB bosh ofisi bosh mutaxasisi

(tel:88-145-44-45)

Annotatsiya: Ushbu maqolada byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining shakllanishi, tegishli normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanib buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish masalalari ko`rib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: davlat sektori, moliyaviy hisobot, moliyaviy aktivlar, majburiyatlar, kassa usuli, hisoblash usuli, sof aktivlar.

KIRISH

Respublikamiz davlat sektorida budjet hisobi va hisobotini takomillashtirish budjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etilmoqda. Xalqaro amaliyotda budjet hisobini isloh etish kassa usulidan hisoblash usuliga oʻtilishi asosiy yoʻnalish sifatida qaraldi. Davlat sektorida hisoblash usuliga asoslangan standartlarning joriy qilinishi soha olimlari ilmiy qarashlarida oʻz ifodasini topdi. Olimlar Bred Potter va Allan Barton budjet hisobida hisoblash usuli va shu asosda standartlarning joriy qilinishi boʻyicha ilmiy xulosalari jamoatchilik tomonidan ijobiy baholanib qabul qilingan. Oxirgi vaqtlarda mamlakatimizda ham xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqib budjet hisobini isloh etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Amaldagi budjet hisobini isloh etishning zaruriyatining kelib chiqish sabablari quyidagilarda oʻz ifodasini topgan:

moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlari, ularning qamrovi va sifatini oshirish;

davlat moliyaviy hisobotlarini xalqaro koʻrsatkichlar bilan solishtirish;

davlat moliyasini boshqarish tizimining boshqa yoʻnalishlarida islohotlarni amalga oshirishda moliyaviy hisobot axborotlarini qoʻllash.

Bu borada Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu konsepsiyada budjet hisobini xalqaro standartlarda umumqabul qilingan tamoyillarga muvofiqlashtirish belgilandi.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (International Public Sector Accounting Standards (IPSAS)) – davlat sektoridagi tashkilotlarda (davlat ishtirokidagi tijorat korxonalaridan tashqari) yuqori sifatda jahon standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish boʻyicha xalqaro miqyosda umumqabul qilingan

qoidalaridir [1]. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari butun jahonda moliyaviy hisobot standartlarining yaqinlashishi, kelishuvi va yanada yaxshilanishida muhim rol o'ynadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari quyidagi maqsadlarda foydalaniladi [2]:

Mamlakatlarda hisob va hisobotga qo'yiladigan milliy talablar uchun asos bo'lib xizmat qilish.

Hisob va hisobotga nisbatan o'z talablarini ishlab chiqayotgan alohida mamlakatlar uchun xalqaro etalon sifatida ishlatilishi.

Hisobni yuritishda to'la foydalanish uchun qabul qilish (standartlardan o'zgartirishlarsiz foydalanish).

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatlarda qo'llash yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarni tuzishga, shuningdek, davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarning shaffofligini oshiradi, budjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarning yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, axborotlarning ishonchliligi va to'liqligining oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi, moliyaviy hisobotlarni boshqa mamlakatlar moliyaviy hisobotlari bilan solishtirish imkoniyati yaratiladi, xalqaro munosabatlarning globallashuvi sharoitida mamlakat majburiyatlari qandayligi va uni o'z resurslari bilan qanday boshqarayotganligi, shuningdek, moliyaviy holatni tushunish asosida chet el investitsiyalari hajmining oshishi va donorlik mablag'larining ko'payishi imkonini beradi hamda davlat sektorida moliyaviy intizom darajasini oshiradi [3].

Hisoblash usulida operatsiyalar va barcha hodisalar (daromadlar, xarajatlar, majburiyatlar) ular sodir bo'lgan paytda (pul mablag'lari xarakatiga bog'liq bo'lmagan holda) tan olinadi.

Hisob amaliyotida hisoblash usuli qo'llanilishining qator ijobiy jihatlarini ko'rsatib o'tish va o'z o'rnida ma'lum nomuvofiqliklarni ham e'tirof etish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Hisoblash usuli qo'llanilishining xususiyatlari

AFZALLIGI	KAMCHILIGI
Daromad va xarajatlar hamda majburiyatlarning sodir bo'lgan vaqtda qayd etish va tan olinishi	Hisob jarayonining murakkablashishi
Hisobning hamma ob'ektlari harakatining qamrab olinishi	Hisobni yuritishga ko'pgina talablar va vazifalarning qo'yilishi
Majburiyatlarni o'zaro hisoblashuvlar asosida tugatish imkoniyati	Kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishga qo'shimcha xarajatlar talab etilishi
Davlat sektorida samarali boshqarish jarayoni uchun to'liq axborotlarni olish	Mutaxassislardan yuqori malaka talab etilishi



imkoniyati	
Davlat organlari samarali faoliyati monitoringini amalga oshirish maqsadlariga mosligi	
O'rta muddatli budjet nazorati maqsadlarida qo'llash imkoniyati mavjudligi	

Hisoblash usuliga asoslangan moliyaviy hisobot tarkibi quyidagilardan iborat [4]:

moliyaviy holati haqida hisobot;

faoliyatning moliyaviy natijalari haqida hisobot;

sof aktiv/kapital o'zgarishi haqida hisobot;

pul mablag'lari harakati haqidagi hisobot;

tasdiqlangan budjet.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda xalqaro standartlar asosida budjet hisobini isloh etishning maqsadi:

birinchidan, hisob yuritishning uslubiy jihatlarini xalqaro amaliyotda umumqabul qilingan me'yorlarga moslashish asosida mamlakat reytingini yanada oshirish;

ikkinchidan, davlat moliyasini boshqarishda hisobotlarning axborot qamrovi va shaffofligini oshirish;

uchinchidan, moliyaviy va statistik hisobotlarning integratsiyalashuvini ta'minlash;

to'rtinchidan, xalqaro munosabatlarning globallasuvi sharoitida chet el investitsiyalari hamda donorlik mablag'lari hajmini ko'paytirishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Davlat moliyasi statistikasi bo'yicha qo'llanma 2014 yil. Xalqaro valyuta jamg'armasi, 2014. // www.imf.org.

2. To'plam: Davlat sektori buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari: 2010 yil nashri. Rasmiy tarjima. 2012. // <http://minfin.ru/ru/budget/sfo/msfo>.

3. Davlat sektori moliyaviy hisobotining xalqaro standartlarini moslashtirish asosida buxgalteriya hisobi va hisobot tizimini takomillashtirish konsepsiyasi. BMTTDning "O'zbekistonda byudjet tizimini isloh qilish" loyihasi, 2013. // <http://www.publicfinance.uz>.

4. Kristensen M. Davlat sektori hisob-kitoblari haqida nimalarni bilishimiz mumkin (lekin ishonchimiz komil emas) // Avstraliya buxgalteriya hisobi sharhi. 2017 jild. 17. No 1. 51-65-betlar.